

ISSN: 2181-4031

DOI Journal 10.56017/2181-4031

4-SON

АПРЕЛЬ, 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

Journal of Fundamental Studies

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ



**IMFAKTOR
PAGES**



ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

ТОШКЕНТ – 2023

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

№ 4 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4031-2023-4>

Бош муҳаррир:

Тураев Б. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Таҳририят аъзолари:

Кенжабаев А. – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

Расулова Д. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Саттаров О. – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент

Исҳоқов М. – тарих фанлари доктори, профессор

Абдуҳалимов Б. – тарих фанлари доктори, профессор

Каримов Б. – тарих фанлари номзоди, доцент

Мадумаров Т. – юридик фанлар доктори, профессор

Қодиров Б. – юридик фанлар доктори, доцент

Қиличев Х. – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори

Баҳодиров Р. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Саифназаров И. – фалсафа фанлари доктори, профессор

Идиоров У. – сиёсий фанлар доктори, профессор

Абдуллаев Н. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Сатторов А. – сиёсий фанлар номзоди, доцент

Умаров А. – социология фанлари доктори, профессор

Матибаев Т. – социология фанлари доктори, профессор

Каюмов К. – социология фанлари бўйича фалсафа доктори

Мазкур фанлараро илмий-амалий журнал Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: <https://imfaktor.uz>, 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-ўй.

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: tahririyat@imfaktor.uz

© IMFAKTOR Pages, 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

Иқтисодиёт фанлари

ERGASHEV Jahongir Sheraliyevich

*Bojxona qo‘mitasi Bojxona instituti, Toshkent
magistratura tinglovchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7834874>

BOJXONA CHEGARASI ORQALI MADANIY BOYLIKLARNI NOQONUNIY OLIB O‘TGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA HOZIRGI ZAMON TAHLILI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniy, tarixiy, arxeologik qiymatga ega bo‘lgan ashyolar va kolleksiyalarni qalbakilashtirish orqali talon-toroj qilish, ularni bojxona chegarasidan noqonuniy o‘tkazish bilan bog‘liq qonun buzilish holatlari uchun javobgarlikni belgilashda yuzaga keladigan ayrim muammoli masalalar va ularning yechimlari yuzasidan fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bojxona organlari, madaniy boyliklar, ma‘muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik.

АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НЕЗАКОННОЕ ПЕРЕМЕЩЕНИЕ КУЛЬТУРНЫХ СЕННОСТЕЙ ЧЕРЕЗ ТАМОЖЕННУЮ ГРАНИЦУ И АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО ВРЕМЕНИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются некоторые проблемные вопросы и пути их решения, возникающие при определении ответственности по делам о правонарушениях, связанных с подделкой культурно-исторических и археологических предметов и коллекций, их незаконным перемещением через таможенную границу.

Ключевые слова: таможенные органы, культурные ценности, административная ответственность, уголовная ответственность.

MAIN DIRECTIONS AND CURRENT FOR IMPROVING RESPONSIBILITY FOR THE ILLEGAL TRANSFER OF CULTURAL PROPERTY ACROSS THE CUSTOMS BORDER

ANNOTATION

This article discusses some of the problematic issues and their solutions that arise in the determination of responsibility for cases of violations of the law related to the counterfeiting of cultural, historical and archaeological objects and collections, their illegal transfer across the customs border.

Keywords: customs authorities, cultural assets, administrative responsibility, criminal responsibility.

Davlatimiz rahbari raisligida 2022-yil 26-aprel kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda “Ichan-Qal’a” davlat muzey-qo‘riqxonasi, “Buxoro” davlat muzeyi va boshqa obyektlardagi yirik madaniy boyliklarning qalbakilashtirilishi, madaniy boyliklarning ommaviy talon-taroj qilinishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar ko‘payib borayotganligi tanqid qilingan [1].

Shuningdek, 2022-yilning 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori asosida, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat‘iy nazar, barcha muzeylardagi ashyolar va kolleksiyalarni hamda boshqa fondlardagi madaniy boyliklar to‘liq inventarizatsiyadan o‘tkazildi hamda o‘tkazilgan tekshirishlarda respublika bo‘yicha 14 ta muzeyda 3 mingdan ziyod nodir va noyob madaniy boyliklar talon-taroj qilingani ma‘lum bo‘ldi [2].

Mavjud ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda davlat muzey-qo‘riqxonalari, davlat muzeyi va boshqa obektlardagi madaniy boyliklarning qalbakilashtirilishi, madaniy boyliklarning ommaviy talon-taroj qilinishi hamda davlatimiz chegarasidan ushbu madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish holatlari ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma‘muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-sonli Farmonlari asosida bojxona organlarida qonun ustuvorligini ta‘minlash yuzasidan bir qancha vazifalar belgilandi [3].

Shu bilan birga 1998-yil 29-avgustdagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonuning 5-moddasida madaniy boyliklarni olib chiqilishi va olib kirilishini davlat tomonidan tartibga solinishida Bojxona qo‘mitasi vakolatli organ sifatida belgilangan [4].

So‘nggi yillarda madaniy, tarixiy, arxeologik qimmatga ega bo‘lgan ashyolar va kolleksiyalarni qalbakilashtirish orqali talon-taroj qilish, ularni bojxona chegarasidan noqonuniy o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator holatlar aniqlanmoqda.

Biroq, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki boshqa madaniy qimmatga ega bo‘lgan ashyo yoki hujjatlarni qonunga xilof ravishda egallash, O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar xalqlarining badiiy, tarixiy va arxeologik merosi ashyolarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga qaytarmaslik, qonunga xilof ravishda moddiy-madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish holatlari bo‘yicha ma‘muriy va jinoyat qonunchiligida alohida normaning mavjud emasligi, mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun alohida ma‘muriy va jinoyat qonunchiliklariga o‘zgartirishlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Amaliyotda, bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tilayotgan madaniy boyliklari bo‘yicha aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo‘yicha olingan ashyoviy dalillar tovar sifatida qaralib, Jinoyat kodeksining 182-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmoqda.

Shuningdek, talon-taroj qilingan yoki o‘g‘irlangan madaniy boyliklarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy yo‘llar bilan xorijiy davlatlarga olib chiqish holatlari ko‘pymoqda.

Xususan, Bojxona qo‘mitasining “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” AAT dasturidan olingan ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, 2019-yilda 124 ta holatda 2575,5 mln. so‘mlik 2166 dona, 2020-yilda 32 ta holatda 95,1 mln. so‘mlik 373 dona, 2021-yilda 113 ta holatda 281,9 mln. so‘mlik 1669 dona va 2022-yil davomida 134 ta holatda 554,4 mln. so‘mlik 1669 dona madaniy boyliklarni bojxona chegarasi orqali noqonuniy olib o‘tish bilan bog‘liq huquqbuzarlik holatlari aniqlangan.

Mazkur aniqlangan holatlar yuzasidan, 2019-yilda 121 ta, 2020-yilda 32 ta, 2021-yilda 111 ta, 2022-yilda 132 ta ma‘muriy ishlar hamda 2019-yilda 3 ta, 2020-yilda aniqlanmagan, 2021-yilda 2 ta va 2022-yilda 2 ta holatda jinoyat ishlari qo‘zg‘atilgan.



Aniqlangan huquqbuzarliklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan olib o‘tishga bo‘lgan urinishlar oshganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikda moddiy-madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun alohida javobgarlik belgilanmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi moddalarini kesimi tahliliga ko‘ra holatlarning aksariyat qismi ya‘ni ushbu kodeksning 227¹⁹-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda iqtisodiy siyosat choralarini va boshqa cheklolarni qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik) va 227²²-moddasi 1-qismi (Tovarlarni deklaratsiyalarni yoki noto‘g‘ri deklaratsiyalash) bilan kvalifikatsiya qilinib, ma‘muriy ishlar qo‘zg‘atilgan[5]. Bu esa joylarda mazkur huquqbuzarliklar kvalifikatsiya qilishda har xil yondashuvlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tishga urinish bo‘yicha aniqlangan (ma‘muriy va jinoiy) huquqbuzarliklar bo‘yicha tahlili


1-jadval (mln.so‘mda)



Ushbu jadval muallif tomonidan Bojxona Qo‘mitasining “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” AATdan olingan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

Madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o‘tishga urinish holatlari bo‘yicha ko‘rilgan javobgarlik choralarining O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi moddalari bo‘yicha tahlili

2-jadval



Ushbu jadval muallif tomonidan Bojxona Qo‘mitasining “Bojxona qonunbuzarlik holatlari hisobini yuritish” AATdan olingan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

Bundan tashqari, madaniy boyliklarning davlatimiz cherasidan noqonuniy olib chiqishda aniqlangan tovarlar tahlillariga ko‘ra, hozirgi kunda madaniy boyliklar va tarixiy ahamiyatga ega buyumlar bozorida XX asr 50-70-yillar oralig‘ida sobiq sovet ittifoqi hayotiga oid maishiy texnika va uy-xo‘jalik mollari, qadimiy tangalar, tarixiy buyumlar, qadimiy mis, kumush va tilla zargarlik buyumlari, tarixiy kitoblar va san‘at asarlari va boshqa madaniy boyliklarni tashkil etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarining tartibi yuzasidan qabul qilingan normativ-hujjatlar hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1998-yildagi O‘RQ 678-I-sonli “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23.03.1999-yildagi 131-sonli “O‘zbekiston Respublikasida madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi masalalarini tartibga solish to‘g‘risida”gi qarorlarda madaniy boyliklarning O‘zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi yoki vaqtincha olib chiqilishi huquqini beruvchi (*sertifikat*) ma’lumotlar almashish mexanizmi tartibga solinmagan [6].

Shuningdek, madaniy boyliklarning davlat chegarasidan olib chiqilishi va olib kirilishi vaqtida, ularni identifikatsiyalashda yangi texnologiyalar nazarda tutilmagan.

Bundan tashqari, bojxona organlari tomonidan aniqlangan madaniy ashyolar amaldagi tartibga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tarkibidagi Badiiy ekspertiza bo‘limlari xodimlari tomonidan ekspertizadan o‘tkazilib tegishli xulosalar berilishi nazarda tutilgan bo‘lib, hududlardagi Badiiy ekspertiza xodimlarining shtat birliklari cheklangan (2-3 ta), ular tomonidan barcha chegara bojxona postlariga borish imkoniyati mavjud emas.

(Misol uchun, ekspertiza xodimlari bilan gaplashilganda Toshkent viloyati uchun 2 nafar xodim shtat birligi ajratilganligi ta’kidlandi. Vaholanki, Toshkent viloyati bojxona boshqarmasi tasarrufida 9 ta chegara bojxona posti mavjud).

Madaniy meros agentligining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi, shuningdek, ularning noqonuniy aylanishini oldini olish maqsadida, 2022-yilda 534 695 dona madaniy boylik bo'yicha jami 1625 ta olib chiqish huquqini beruvchi sertifikat berilgan va 6420 dona madaniy boyliklarning noqonuniy olib kirilishi va olib chiqilishi to'xtatilgan, ular bo'yicha 327 ta ekspertiza xulosalari rasmiylashtirilgan [7].

Shunga ko'ra, Madaniy meros agentligining badiiy ekspertiza xulosasi fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritishda ish holatlarini aniqlashga qaratilgan hamda ekspert tomonidan san'at yoki hunarmandchilik sohasidagi maxsus bilimlar asosida ekspertiza tekshirishlarini o'tkazish va xulosa berishdan iborat bo'lgan protsessual harakatni amalga oshirishini inobatga olgan holda unga san'atshunoslik sud-ekspertizasi maqomini berish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xalqaro tajribaga ko'ra, ko'p davlatlarda madaniy qimmatliklarning noqonuniy aylanmasining (noqonuniy olib kirilishi va olib chiqilishi, o'g'irlab ketilishi) oldini olishda, ushbu huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarga nisbatan ma'muriy va jinoyat qonunchiligida alohida moddalar orqali javobgarlik masalalari belgilangan.

Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksining 7.13-moddasi, ya'ni ushbu moddada Rossiya Federatsiyasi xalqlarining madaniy merosi obektlarini (tarixiy va madaniy yodgorliklar) muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik va Jinoyat qonunchiligida jinoyat obekti e'tiborga olinib, bir nechta normalarga ajratilgan [8].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 226-1 - moddasida (Kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli, zaharlovchi, portlovchi, radioaktiv moddalar, radiatsion manbalar, yadroviy materiallar, o'qotar qurollar yoki ularning asosiy qismlari, portlatish qurilmalari, o'q-dorilar, ommaviy qirg'in qurollari, ularning yetkazib berish vositalari, boshqa qurol-yarog'lar, boshqa harbiy texnika, shuningdek, ommaviy qirg'in qurollari, ularning yetkazib berish vositalari, boshqa qurol-yarog'lar, boshqa harbiy texnikani yaratishda foydalanish mumkin bo'lgan materiallar va moslamalar, shuningdek, strategik muhim tovarlar va resurslar yoki madaniy boyliklar yoxud qimmatbaho yovvoyi hayvonlar va suv biologik resurslari kontrabandasi) belgilangan [9].

Gruziya davlati Jinoyat kodeksi ning 214-moddasida Bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish qoidalarini buzish jinoyatlari belgilangan bo'lib, ushbu moddaning 3-qismida Gruziya davlati qonunida belgilangan madaniy meros obektlarini yoki boshqa turdagi madaniy meros obektlari qoidalarini buzgan holda olib kirish yoki olib chiqish uchun jinoiy javobgarlik belgilangan [10].

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 248-moddasida madaniyat yodgorliklarini davlat chegarasidan g'ayriqonuniy ravishda o'tkazilishi ham kontrabanda jinoyati tarkibini tashkil etishi belgilangan [11].

Shuningdek, Xitoy davlati Jinoyat kodeksining 325-moddasida, madaniy qiymmatliklarni noqonuniy olib chiqishga uringan hamda madaniy yodgorliklarga ziyon yetkazgan shaxslarga nisbatan 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi [12].

Qayd etilganlardan kelib chiqib, ushbu faoliyat bilan bog'liq aniqlangan muammolar yechimi yuzasidan quyidagilar amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi hamda Bojxona qo'mitasi o'rtasida real vaqtda elektron ma'lumot almashish mexanizmini yo'lga qo'yish. (Madaniy meros agentligi tomonidan berilgan sertifikat va foto, video ilovalari mavjud elektron reestri shakllantiriladi va bojxona organlarida mavjud axborot tizimiga integratsiya qilinadi. Bunda chegara bojxona postlari orqali harakatlanayotgan madaniy boyliklarga tegishli sertifikatning tez muddatlarda asilligini aniqlash imkoni yaratiladi.)

- Vaqtincha olib chiqib ketilayotgan madaniy boylikni himoyalash maqsadida madaniy meros agentligi tomonidan madaniy boylikka bir martalik indentifikatsion raqam kiritishni joriy etish.

(Bojxona xodimlari ushbu indentifikatsion raqam orqaligina Madaniy meros agentligi tomonidan berilgan sertifikat va foto, video ilovalari mavjud elektron reestriddan foydalanish imkoni bo'ladi. Bu orqali huquqbuzarlar tomonidan qalbaki hujjatlar asosida madaniy boyliklarni bojxona chegarasidan olib chiqib ketish holati oldi olinadi.)

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi PQ-5150-son qarori 12-bandiga asosan, olib chiqilayotgan va olib kirilayotgan madaniy boyliklarni hisobga olish va olib chiqish huquqini beruvchi sertifikatlar berish bo‘yicha davlat xizmatlari 2023-yil 1-yanvardan boshlab elektron shaklda ko‘rsatilishini inobatga olib, Ma‘daniy meros agentligi va boshqa mutasaddi vazirliklar bilan hamkorlikda chegara bojxona postlarida sertifikatlarni elektron ko‘rish va tekshirish imkoniyatini yaratish [13].

- O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 227¹⁹-moddasi (O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlarni qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik) quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirilishi maqsadga muvofiq;

Xuddi shunday huquqbuzarlik bojxona chegarasi orqali moddiy-madaniy boyliklarni olib o‘tish tartibini buzgan holda sodir etilsa, - tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o‘ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - o‘ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi quyidagi mazmundagi 182¹-modda bilan to‘ldirilishini maqsadga muvofiq:

182¹ - modda. Moddiy-madaniy boyliklarni qonunga xilof ravishda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish

Bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o‘xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo‘li bilan foydalangan holda yoki ruxsatnomasiz, maxsus qoidalar belgilangan moddiy-madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o‘tkazish, shunday harakat uchun ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa -bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O‘sha qilmish:

a) chegarani buzib o‘tish, ya‘ni bojxona xizmatining roziligini olmasdan turib, moddiy-madaniy boyliklarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan ochiqdan ochiq o‘tkazish yo‘li bilan;

b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab;

v) xizmat lavozimidan foydalangan holda sodir etilgan bo‘lsa;

g) ilgari O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib chiqilgan moddiy-madaniy boyliklarni qaytarib olib kirmaslik - besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

(Bunda, Bojxona kodeksining 39-moddasi (Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati) va 41-moddasi (Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimining tugallanishi) hamda 260-modda (Deklaratsiyalash usullari)lari asosida vaqtincha olib chiqilgan tovarlar (moddiy-madaniy boyliklar) belgilangan muddat tugagach qaytarilishi shartligi ko‘rsatilgan bo‘lsada, amaliyotda vaqtincha olib chiqilgan moddiy-madaniy boyliklarni belgilangan muddatda qaytarmaganlik uchun javobgarlik masalasi belgilanmagan, shuningdek bojxona organi tomonidan bojxona chegarasi orqali moddiy - madaniy boyliklar bilan bog‘liq jinoiy va ma‘muriy huquqbuzarliklar uchun alohida javobgarlik masalasi ta‘minlanadi.)

Milliy qonunchilik tizimiga kiritilayotgan yangi me‘yorlar bo‘yicha takliflar, bojxona organlarining samaradorligini va shaffofligini ta‘minlanishi bilan birga mamlakatimizdagi madaniy boyliklarni himoya qilishda va kelajak avlodga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimizning o‘tmish tarixidan bizga madaniy meros bo‘lib qolgan barcha ashyo-yu dalillar, qo‘lyozma durdonalari-yu, me‘moriy obidalarimizni, milliy qadriyatlarimizning asosi bo‘lmish qadimiy urf-odatlarimizni o‘rganishimiz va avaylab-asrashimiz barchamizning fuqarolik burchimizdir.

ИҚТИБОСЛАР

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev raisligida 2022-yil 26-aprel kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilish (The meeting held on April 26, 2022 under the chairmanship of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev). <https://www.gazeta.uz/uz/2022/06/01/museums>
2. 2022-yilning 27-maydagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan of May 27, 2022 "On measures to develop the field of services in museums"). <https://lex.uz/uz/docs/-6040013>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.04.2022 yildagi PF-122-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No.122 dated 27.04.2022). <https://lex.uz/uz/docs/-5998615>
4. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi Qonuni, 29.08.1998 yildagi 678-I-son (Law of the Republic of Uzbekistan "On Import and Export of Cultural Assets", dated 29.08.1998 No. 678-I). <https://lex.uz/uz/docs/-24377>
5. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 22.09.1994 yil (Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Responsibility date 22.09.1994) <https://www.lex.uz/uz/docs/-97664>
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 23.03.1999 yildagi 131-son(Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, No. 131 dated 23.03.1999). <https://lex.uz/uz/docs/-279299>
7. Daryo.uz ijtimoiy yangiliklar tarmog‘ining 10.03.2023-yildagi maqolasi daryo.uz
8. Rossiya Federatsiyasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksi 7.13-moddasi(Article 7.13 of the Code of Administrative Responsibility of the Russian Federation). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/6d3a764bb0e22830ad1cb6cdf022003e30b06c54/
9. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksi 13.06.1996-yil(Criminal Code of the Russian Federation dated 13.06.1996). https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/3116d03105d9f4872d6f5fa6b5c8a1021710f60d/
10. Gruziya Jinoyat kodeksi 13.08.1999-yil(Criminal Code of Georgia dated 13.08.1999). <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=242>
11. Moldova Respublikasi Jinoyat Kodeksi 18.04.2002-yil(Criminal Code of the Republic of Moldova dated 18.04.2002). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30394923#pos=3333;-28
12. Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat Kodeksi 14.03.1997-yil (Criminal Code of the People's Republic of China 14.03.1997). <http://www.asianlii.org/cn/legis/cen/laws/clotproc361/>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.06.2021 yildagi PQ-5150-son(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, dated 19.06.2021 No. 5150). <https://lex.uz/uz/docs/5465593#:~:text=Shunday%20tartib%20o%E2%80%98rnatilsinki>

ISSN: 2181-4031
DOI Journal 10.56017/2181-4031

ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 4-СОН

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-I, НОМЕР-4

JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

VOLUME-I, ISSUE-4

«Фундаментал тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054837-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz